



Navoiy viloyatida kichik tadbirkorlik

(dastlabki ma'lumotlar)

2020- yil yanvar-iyun

2020- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning YaHMdag'i ulushi **23,0 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1 000 aholiga **20,2** birlikni tashkil qildi.

2020- yilning yanvar-iyunida **2 636** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **11,3** foizga kam.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda 1 044 ta, sanoatda 544 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 488 ta, yashash va ovqatlanishda 143 ta, qurilishda 124 ta, tashish va saqlashda 60 ta tashkil etilgan.

2020- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Savdo
39,6 %



Sanoat
20,6 %



Qishloq, o'rmon
va baliq xo'jaligi
18,5 %



Yashash va
ovqatlanish bo'yicha
xizmatlar
5,4 %



Qurilish
4,7 %



Tashish va saqlash
2,3 %

Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2019- y.	2020- y.	(+/-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	11853	16974	5121
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	2972	2636	-336
<i>Kichik tadbirkorlikning ulushlari:</i>				
YaHM	%	26,7	23,0	-3,7
Sanoat	%	12,3	6,7	-5,6
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	%	98,1	98,0	-0,1
Investitsiya	%	15,8	22,8	7,0
Qurilish	%	71,0	75,9	4,9
Savdo	%	88,9	82,3	-6,6
Xizmatlar	%	62,2	57,7	-4,5
Yuk tashish	%	8,2	7,9	-0,3
Yuk aylanmasi	%	43,8	43,9	-0,1
Yo'lovchi tashish	%	86,6	88,2	1,6
Yo'lovchi aylanmasi	%	83,5	88,0	4,5
Eksport	%	26,9	15,2	-11,7
Import	%	45,9	27,7	-18,2



2020- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da




2020- yilning yanvar-iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning shahar va tumanlar bo'yicha eng ko'pi Navoiy shaharida – 642 ta, Xatirchi tumanida – 417 ta, Karmana tumanida – 395 ta, Qiziltepa tumanida – 390 ta, Zarafshon shaharida – 344 ta va Navbahor tumanida – 248 tani tashkil etgan. Shuningdek, eng past ko'rsatkich Konimex tumanida – 92 ta va Tomdi tumanida – 62 tani tashkil etgan.

Tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019- yil yanvar-iyun	2020- yil yanvar-iyun	(+/-)
Navoiy viloyati	2972	2636	-336
<i>shaharlar:</i>			
Navoiy	642	414	-228
Zarafshon	344	181	-163
<i>tumanlar:</i>			
Karmana	395	332	-63
Konimex	92	133	41
Qiziltepa	390	419	29
Navbahor	248	247	-1
Nurota	182	189	7
Tomdi	62	81	19
Uchquduq	200	215	15
Xatirchi	417	425	8



2020- yil yanvar-iyun holatiga ko'ra yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da




2020- yilning yanvar-iyun oylarida tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Xatirchi tumani - 16,1 %, Qiziltepa tumani - 15,9 %, Navoiy shahri - 15,7 %, Karmana tumani - 12,6 %, Navbahor tumani - 9,4 %, Uchquduq tumani - 8,2 %, Nurota tumani - 7,2 %, Zarafshon shahri - 6,9 %. Konimex tumani - 5,0 %, Tomdi tumani – 3,1 % ga tegishli

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019- yil yanvar-iyun	2020- yil yanvar-iyun	(+;-)
Jami	2972	2636	-336
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	370	488	118
Sanoat	684	544	-140
Qurilish	209	124	-85
Savdo	1094	1044	-50
Tashish va saqlash	82	60	-22
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	252	143	-109
Axborot va aloqa	43	31	-12
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	26	26	0
Boshqa faoliyat turlari	212	176	-36

Ma'lumot uchun: 2020- yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tuman va shaharlar, birlikda

	2019- yil yanvar-iyun	2020- yil yanvar-iyun	Farqi (+;-)
Xatirchi tumani	417	425	8
Qiziltepa tumani	390	419	29
Navoiy sh.	642	414	-228
Karmana tumani	395	332	-63
Navbahor tumani	248	247	-1
Uchquduq tumani	200	215	15
Nurota tumani	182	189	7

2020- yilning yanvar-iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Xatirchi tumanida – 425 taga yetdi.




Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tuman va shaharlar, birlikda





Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1 000 aholiga, birlikda), yanvar-iyun holatiga ko'ra*



2020- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1 000 aholiga, birlikda) tumanlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Tomdi tumanida 39,9 birlik, Navoiy shahrida 25,9 birlik, Karmana tumanida 24,8 birlik. Uchquduq tumanida 24,4 birlik, Konimex tumanida 22,3 birlik, Nurota tumanida 19,7 birlik, Navbahor tumanida 19,6 birlik, Qiziltepa tumanida 19,0 birlikni tashkil etgan. Zarafshon shahrida 16,1 birlikni va Xatirchi tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 14,4 birlikka to'g'ri keldi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




2020- yilning yanvar-iyunida tuman va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1 000 aholiga, birlikda)*



* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




2020- yilning yanvar-iyunida tuman va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni* (har 1 000 aholiga, birlikda)



2020 - yilning yanvar- iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1 000 aholiga, birlikda) tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Tomdi tumanida 39,9 birlik, Navoiy shahrida 25,9 birlik, Karmana tumanida 24,8 birlik, Uchquduq tumanida 24,4 birlik, Konimex tumanida 22,3 birlik, Nurota tumanida 19,7 birlik, Navbahor tumanida esa 19,6 birlikni tashkil etdi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1 000 aholiga, birlikda)



- **Eng yuqori ko'rsatkich**
Tomdi tumani - 39,9 birlik;

- **O'rtacha ko'rsatkich**
Navoiy shahri- 25,9 birlik;

- **Eng past ko'rsatkich**
Xatirchi tumani - 14,4 birlik;

Bundan ko'rinish turibdiki, Tomdi tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab eng yuqori darajada bo'lgani uchun ham bu tumanda korxonalar soni ko'paygan. Aksincha, Xatirchi tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab pastligi uchun ham korxona soni o'zgarmagan va eng past darajaga tushib ketdi.


Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushini pasayish dinamikasi, yanvar - iyun holatiga ko'ra, % da

2020- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 23,0 % ni tashkil qildi. (2019- yilning yanvar-iyunida 26,7 %).

YaHMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.



Kichik tadbirdorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumi hajmiga nisbatan % da)



2020- yilning yanvar- iyunida kichik tadbirkorlikni tuman va shaharlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Navoiy viloyati	6,7	75,9	57,7	22,8
<i>shaharlar:</i>				
Navoiy	1,7	78,4	28,4	14,6
Zarafshon	94,5	35,5	64,9	21,9
<i>tumanlar:</i>				
Karmana	17,3	98,8	90,8	59,9
Konimex	25,3	81,7	96,5	5,8
Qiziltepa	40,7	92,3	95,3	51,5
Navbahor	66,2	100,0	98,2	94,5
Nurota	99,7	100,0	97,2	93,8
Tomdi	100,0	100,0	99,4	0,5
Uchquduq	100,0	100,0	98,7	8,2
Xatirchi	100,0	80,6	95,6	96,4

Tuman va shaharlar bo`yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ulushi eng ko`p:

Sanoatda-

**Tomdi (100,0 %),
Uchquduq (100,0 %),
Xatirchi (100,0 %),
Nurota (99,7 %),
Zarafshon sh. (94,5 %)
va Navbahor (66,2 %)
tumanlarida.**

Qurilishda-

**Navbahor (100,0 %),
Nurota (100,0 %),
Tomdi (100,0 %),
Uchquduq (100,0 %),
Karmana (98,8 %) va
Qiziltepa (92,3 %)
tumanlarida.**

Xizmatlarda-


**Tomdi (99,4 %),
Uchquduq (98,7 %),
Navbahor (98,2 %),
Nurota (97,2 %),
Konimex (96,5 %) va
Xatirchi (95,6 %)
tumanlarida.**

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2020 yilning yanvar-iyunida

-  1 Sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi 1902,6 mlrd.so'm (jami sanoat ishlab chiqarishning 6,7 %) ni tashkil qildi.
-  2 1783,0 mlrd.so'mlik investitsiya (umumiyligi 22,8 %) o'zlashtirdi va 2019 yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 2,2 % foizga kam.
-  3 1537,8 mlrd.so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiyligi 75,9 %) bajarildi va 2019 yilning yanvar-iyunida o'sish sur'ati 107,9 % ni tashkil qildi.
-  4 1498,2 mlrd.so'mlik xizmatlar ko'rsatilib, (xizmatlar hajmining 57,7 %) bajarildi va 2019 yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 2,6 % foizga kam.
-  5 Chakana tovar aylanmasi umumiyligi 82,3 % yoki 2828,3 mlrd.so'm (o'sish sur'ati 0,5 %) foizga kam.
-  6 32,0 mln.AQSH dollarasi (umumiyligi eksport hajmining 15,2 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi. Bu esa 2019 yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 36,3 % foizga kam.




Kichik tadbirkor subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, xizmatlar) eksportining, jami eksportdagi ulushi, % da



2020- yil yanvar-iyun oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulotlar (tovar, xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushini Konimex, Nurota va Tomdi tumanlarida – 100,0%, Uchquduq tumanida – 99,6 %, Zarafshon sh. shahrida – 96,7 %, Navbahor tumanida – 64,1 %, Xatirchi tumanida – 58,0 %, Karmana tumanida – 40,7 %, Qiziltepa tumanida – 23,9 % ni, eng past ko'rsatkich Navoiy shahrida – 1,4 % ni tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining, jami importdagi ulushi, % da



2020- yil yanvar-iyun oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Konimex, Nurota, Tomdi, Uchquduq va Xatirchi tumanlarida – 100,0 %, Zarafshon shahrida – 72,7 %, Navbahor tumanida – 54,1 %, Qiziltepa tumanida – 41,2 %, Karmana tumanida – 37,7 %. Eng past ko'rsatkich Navoiy shahrida - 5,2 % ni tashkil etdi.



2020- yilning yanvar -martida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi




Tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Karmana tumanida (529,2 mlrd. so'm), Navoiy shahri (395,3 mlrd. so'm), Xatirchi tumanida (238,0 mlrd. so'm), Qiziltepa tumanida (224,5 mlrd. so'm) va Navbahor tumanida (163,6 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Tomdi tumanida (16,5 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.






2020- yil yanvar - iyun holatiga ko'ra jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da



Tuman va shaharlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Tomdi, Uchquduq va Xatirchi tumanlarida (100,0%), Nurota tumani (99,7%), Zarafshon sh. (94,5%), Navbahor tumani (66,2%), Qiziltepa tumani (40,7%), Konimex tumani (25,3%), Karmana tumani (17,3%) ni tashkil etdi. Navoiy shahrida (1,7%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2020 - yilning yanvar - iyunida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirdorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Navoiy shahri – 743,2 mlrd. so'm (2019 yilning yanvar – iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 82,7%), Karmana tumani 541,7 mlrd. so'm (99,4%), Xatirchi tumani 369,1 mlrd. so'm (101,6%) va Qiziltepa tumani 339,8 mlrd. so'm (101,7%) hissasiga to'g'ri keladi.



2020 - yilning yanvar-iyunida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Navoiy shahri - 427,7 mlrd. so'm (2019 yilning yanvar – iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 90,0%), Qiziltepa tumani 269,3 mlrd. so'm (106,5%), Karmana tumani 212,4 mlrd. so'm (108,6%), Zarafshon shahri 169,8 mlrd. so'm (787,3%) hamda Navbahor tumanida 124,3 mlrd. so'm (100,9%) qayd etildi.





2020- yilning yanvar-iyunida tuman va shaharlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati




Tuman va shaharlar bo`yicha eng ko`p xizmatlar hajmi Navoiy shahri - 378,6 mlrd. so'm (2019 yilning yanvar – iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 82,6%), Karmana tumani 289,2 mlrd. so'm (115,3%), Qiziltepa tumani 180,1 mlrd. so'm (103,4%), Zarafshon shahri 168,2 mlrd. so'm (89,9%) hissasiga to'g'ri keladi.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020- yil II chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **766** ta respondentlar ishtirok etdi.

2020 - yil II horak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi*, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 8,1 % (62 ta.), sanoatda – 15,3 % (117 ta), qurilishda – 11,6 % (89 ta), savdoda – 36,9 % (283 ta), xizmatlar sohasida – 28,1 % (215 ta) ni tashkil etdi.


* oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.



**2020 - yil II chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot
(tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi
bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va
mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda**



**2020 - yil II chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot
(tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan
kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va
mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da**




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020 - yilning II choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan qoniqarli iqtisodiy vaziyat qurilish korxonalarida 36,6 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 34,9 punktga, sanoat korxonalarida 32,9 punktga, xizmatlar sohasida 28,8 punktga, savdoda 24,9 punktga, oshdi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholaydigan barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi.

Joriy yilning II choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda xizmatlar sohasi va qurilish korxonalarida 6,4 punktga, sanoat sohasida 6,1 punktga, savdoda 2,8 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.

Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalarning 2019 - 2020- yillarda II chorakdagи iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020 - yilning II choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalarida sanoat korxonalarida 11,6 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 4,5 punktga ulushi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'paygan. Ximatlar korxonalarida, savdo korxonalarida va qurilish korxonalarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, savdo sohasi 2,4 punktga, qurilish korxonalari 8,0 punktga, yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi o'sdi. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, sanoat sohasida, xizmatlar sohasida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi ximatlar sohasida 1,9 punktga, savdo sohasida 2,3 punktga, sanoat sohasida 0,8 punktga kamaygan.




Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan korxonalarining 2019 – 2020-yillarda II chorakdagi iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda baholanishi, % da






2020- yilning II choragi yakunlariga ko'ra yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 183 ta respondentlar qatnashgan. Shundan savdo – 84 ta (ishtirok etgan respondentlarning umumiyligi sonining 45,9%), sanoat korxonalari – 33 ta (18,0%), xizmatlar – 30 ta (16,4%), va qishloq, o'rmon va baliq ho'jaligi – 27 ta (14,8%), qurilish – 9 ta (4,9%).

2020 - yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da






2020- yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2020 - yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar kuzatuvi ma'lumotlariga ko'ra, 2020 - yilning II choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushi barcha faoliyat turlari bo'yicha pasayishi kuzatildi.

Shu bilan birga, joriy yilning II choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining o'sishi kuzatildi.

Joriy yilning II choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qurilish sohasida 7,8 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, sanoat sohasida, savdo sohasida, xizmatlar sohasida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'paygan.



2019 – 2020 – yillar II chorakdagi yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyatini kuzatuvi natijalariga ko'ra, 2020 - yilning II choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga ishongan korxonalar ulushi barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydagisi iqtisodiy vaziyat o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar ulushi xizmatlar sohasida 9,3 punktga, qurilishda 1,1 punktga, savdoda 13,1 punktga oshdi, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalarida esa 31,1 punktga o'sishi kuzatildi. Xizmatlar sohasida 3,3 punktga kamaygan.



2019 – 2020 – yil II choragida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



**Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi**

Tel. (79) 223-57-61